

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA SHE’R NAV’LARI VA ADABIY JANRLAR MUNOSABATI

Madinabonu Mirzayeva

ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariy qalamiga mansub “Devonu lug‘otit turk” (1072-1074) asarida qayd etilgan she’r nav’lari va adabiy janrlarning ilmiy tahlili yoritilgan. Asar nafaqat turkiy tillarning ilk qomusiy lug‘ati, balki XI asr turkiy xalqlar adabiyoti, folklori va she’riy madaniyati haqida noyob manba hisoblanadi. Maqolada devonda izohlangan o‘tluk, bilig, tabzug‘, qoshug‘, yir, ko‘g, alqish, qarg‘aq, sav, o‘tkunch, etuk kabi adabiy atamalar tahlil qilinib, ularning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi o‘rni va keyingi mumtoz adabiyot janrlari bilan bog‘liqligi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Devonu lug‘otit turk, she’r nav’lari, adabiy janrlar, turkiy adabiyotshunoslik, qoshug‘, yir, ko‘g, alqish, qarg‘aq, sav, to‘rtlik, sandrush.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of poetic types and literary genres recorded in Mahmud al-Kashgari’s work “Devonu lug‘otit turk” (1072-1074). The work is not only the first encyclopedic dictionary of Turkic languages but also a unique source on the literature, folklore, and poetic culture of Turkic peoples in the 11th century. The article analyzes literary terms such as o‘tluk, bilig, tabzug‘, qoshug‘, yir, ko‘g, alqish, qarg‘aq, sav, o‘tkunch, etuk, explains their place in modern literary criticism, and reveals their connection with subsequent classical literary genres.*

Keywords: *Devonu lug‘otit turk, poetic types, literary genres, Turkic literary studies, rajaz, qoshug‘, yir, ko‘g, alqish, qarg‘aq, sav, sandrush.*

Kirish

Turkiy adabiyotshunoslik tarixida she’r nav’lari va adabiy janrlarning tizimli o‘rganilishi qadimiy an‘analarga ega. Bu boradagi eng muhim va dastlabki manbalardan biri Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (1072-1074) asari hisoblanadi. Asar muqaddimasida olim o‘z maqsadini quyidagicha izohlaydi: “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, saj‘lar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezatdim” [Koshg‘ariy, 1960: I, 45]. Ushbu maqolada aynan shu asarda qayd etilgan adabiy janrlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va adabiy merosimizdagi o‘rni tahlil qilinadi.

“Devonu lug‘otit turk” nafaqat universal lug‘at, balki o‘sha davr turkiy xalqlarining madaniyati, tarixi, etnografiyasi, folklori va adabiyoti haqida noyob ma‘lumotlar to‘plamidir. Asarda keltirilgan adabiy parchalar maxsus janrlar nomi bilan nomlanmagan bo‘lsa-da, ularning mazmun va shakliy xususiyatlari bu atamalarning

janr sifatida nomlanishiga asos bo'ladi. Professor R.Orzibekov bu asarni Turkiy adabiyotlardagi tur va janrlar genealogiyasini o'rganishga doir ikki muhim manbaning dastlabkisi deb ataydi [Orzibekov, 2006: 4].

Devonda qayd etilgan she'r nav'lari va adabiy janrlar

“Devonu lug'otit turk”da turkiy so'z va iboralar bilan ifodalangan qator adabiy janrlar qayd etilgan bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Didaktik janrlar: o'tluk, bilig, o'gut

O'tluk (اتلك) – o'git, nasihat ma'nosini bildiradi. Devonda bu janrga xos she'riy parchada mehmondo'stlik, qo'ni-qo'shniga yaxshilik qilish kabi fazilatlar ulug'lanadi. Shuningdek, o'gut so'zi ham qayd etilib, “o'g'il, mendan o'git ol, fazilat tila” mazmunidagi she'riy namuna keltirilgan [Koshg'ariy, 1960: I, 85].

Bilig (بلك) – hikmat, bilim ma'nolarini anglatadi. Bilig asosan hozirgi o'zbek adabiyotidagi maqol janri mazmuniga yaqin turadi. Devonda “Toy atatsa, at tinur” (Toy ulg'aysa, ot tinadi), “Alin bilan arslan tutar” (Hiyla bilan arslon tutilar) kabi qadimiy hikmatli so'zlar saqlangan. Bu parchalar ajdodlarning hayotiy tajribalari, axloqiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan.

2. Lirik va musiqiy janrlar: qoshug', yir, ko'g, to'rtlik

Qoshug' (قتغ) – she'r, qasida, qo'shiq kabi uch janr ma'nosini umumlashtiradi. Devon noshiri S.Mutallibovning ta'kidlashicha, “qoshuq so'zining asl ma'nosi bir so'zning boshqa so'zlarga qo'shilishi, ma'lum bir vazn talab qilgan miqdordagi so'zlar qo'shilmasi – tizmasi”dir [Koshg'ariy, 1960: II, 156]. Devonda bu atama izohida “Turkan qatun qutinga tegur mendin qo'shig'” (Turkan xotin qoshiga mendan she'r yetkur) misralari keltirilgan.

Yir (ير) – kuy, maqom, g'azal ma'nolarini ifodalaydi. Bu atama qozoq va qoraqalpoq xalqlarida “jirov” (xalq dostonlarini kuylovchi) shaklida hozirgacha saqlangan. Yir janri qadimgi turkiy adabiyotda she'r va kuyning omuxta holatda ijro etilishini talab qiluvchi janr hisoblangan.

Ko'g (كوك) – Devonda bu so'zning yetti xil ma'nosi keltirilgan bo'lib, ulardan uchasi adabiyotga aloqador: 1) she'rning vazni, o'lchovi; 2) kuy, maqom, ashulada maxsus qoidaga muvofiq baland-past qilish; 3) bir xil kulgi – har shahar xalqi orasida mashhur bo'lib aytiladigan hajviy parchalar. Ko'g she'r va musiqa mujassamligidagi janr sanaladi. Alisher Navoiy ijodida ham bu atama aynan shunday ma'noda qo'llangan: “Ey mug'anniy, sen navo ohangida ko'kla qo'buz,

Firoq sori tuzub o'lturur ko'ki cholding” [Koshg'ariy, 1960: III, 144].

Devon tarkibidagi to'rtliklar alohida ahamiyatga ega. Fitrat devondagi to'rtliklarni mazmuniga ko'ra o'n besh bo'limga guruhlagan [Fitrat, 2006: 120]. Bu to'rtliklar asosan barmoq vaznida yozilgan bo'lib, qofiyalanish tizimi jihatidan a-b-a-b, a-a-a-b, a-b-a-c kabi turlicha shakllarda keladi. Nemis turkologi K.Brokkelman bu to'rtliklarni dastlab turkiy xalqlarning qadimgi folkloriga mansub deb hisoblagan bo'lsa,

S.Mutallibov ularning katta bir qismi juda uzoq davrlar mahsuli ekanligini ta'kidlaydi [Koshg'ariy, 1960: I, 33].

2. Ijtimoiy marosim va folklor janrlari: alqish, qarg'aq, yig'i-yo'qlov, tabzug', irq Alqish (القت) – olqish, maqtash, duo qilish ma'nolarini bildiradi. Devonda ikki xil mazmundagi alqishlar uchraydi: Tangriga, yaratuvchiga olqish (arabcha “hamd”) va real shaxsga, hukmdor yoki qahramonga aytilgan maqtovlar (arabcha “madhiya”). Tangriga bag'ishlangan to'rtliklardan biri quyidagicha: “Tangri ajun turutti, (Tangri olamni yaratdi,) Chig'ri izi tezgino'r. (Falak doim aylanur.)” [Koshg'ariy, 1960: II, 350].

Qarg'aq (قراق) – qarg'ish, la'nat ma'nolarini ifodalaydi. Devonda mehmonga sovuq so'z aytgan, baxillik qilgan mezbbon nomiga la'nat aytilgan she'riy parchalar saqlangan. Qarg'aqlardagi o'tkir tanqid va keskin tasvir keyingi davr adabiyotida hajv va satiraning rivojlanishiga asos bo'lgan.

Tabzug' (تبزغ) – topishmoq. Turkiy adabiyotdagi qadimiy janrlardan biri. Mumtoz adabiyotimizda ilk marotaba Navoiy tomonidan yozib boshlangan chiston (topishmoq) lirik janri mazmun-mohiyat jihatidan tabzug'ning takomili deyish mumkin.

3. Epik janrlar: sav, o'tkunch, etuk, afsona

Sav (سأو) – Devonda bu so'z bir necha funksiyaga ega: qissa, hikoya, risola, xat, so'z, nutq, otalar so'zi. Sav atamasining dastlabki ikki izohi uning hozirgi adabiyotshunoslikdagi epik tur atamasiga yaqin turishini ko'rsatadi. B.Valixo'jayev doston janrining genezisini bevosita sav janri bilan bog'laydi.

O'tkunch (اتكنج) – hikoya. Devonda “G'unnalilar” bo'limi shu so'z bilan boshlanadi. Etuk (اتك) – hikoya, ertak. Devonda izohlangan bu adabiy janr hozirgi adabiyotimizdagi ertak va hikoya janrlari xususiyatlarini o'zida jamlaydi.

Devonda, shuningdek, afsonalardan namunalar keltirilgan. Xususan, o'n ikki muchal yilining kelib chiqishi haqidagi afsona turkiy xalqlarning qadimgi dunyoqarashini aks ettirishi bilan qimmatlidir.

Maxsus she'riy shakllar: rajaz, sandrush, tuyuq (ildizlari)

Devonda rajaz atamasi ham aruz bahri nomi, ham janggovalik qo'shiqlarini ifodalovchi adabiy atama sifatida qo'llangan. R.Vohidovning ta'kidlashicha, “Devonu lug'otit turk”dagi mehnat qo'shiqlari ovchilik, chorvachilik, bog'dorchilik va dehqonchilik bilan bog'liq jarayonlarni badiiy ifoda etadi [Vohidov, 2006: 27].

Sandrush (“tortishuv”) – qish va yoz o'rtasidagi bahs-munozarali to'rtliklar. Devonda yigirmadan ortiq bunday parchalar aks etgan. Abdurauf Fitrat “Devon”dan munozara janriga oid 23 ta to'rtlikni tiklagan [To'xliyev, 2019: 53-60]. Sandrush janri keyinchalik mumtoz adabiyotda “munozara” janrining rivojlanishiga zamin bo'ldi.

Tuyuq janrining ildizlari ham devonda kuzatiladi. Devon I jild 361-sahifasida “tuzaq” so'zining ikki xil ma'nosi (tuzoq va sevikli yor) keltirilib, omonimlik asosida

qurilgan to'rtlik misol sifatida berilgan. Bu holat mumtoz adabiyotimizda XIV-XV asrlarda shakllangan tuyuq janrining qadimgi turkiy ildizlarini ko'rsatadi.

Devondagi she'r nav'larining tasnifi

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, "Devonu lug'otit turk"da qayd etilgan adabiy janrlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Didaktik janrlar – o'tluk, bilig, o'gut, sav-otalar so'zi;
2. Lirik va musiqiy janrlar – qoshug', yir, ko'g, to'rtlik, sandrush, tuyuq (ildizlari);
3. Ijtimoiy marosim va folklor janrlari – alqish, qarg'aq, yig'i-yo'qlov, tabzug', irq;
4. Epik janrlar- sav, o'tkunch, etuk, afsona.

Xulosa

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari nafaqat turkiy tillarning ilk qomusiy lug'ati, balki qadimgi turkiy xalqlarning adabiy-estetik tafakkuri, og'zaki ijod an'analari va she'riy madaniyatini aks ettiruvchi noyob manbadir. Asarda keltirilgan adabiy parchalar orqali XI asrga qadar shakllangan turkiy adabiy muhitning boy va rang-barang ekanligi namoyon bo'ladi.

Devonda izoh berilgan janrlar qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodida nasr hamda nazmning o'ziga xos shakllarda rivojlanganligidan dalolat beradi. Ushbu janrlarning aksariyati keyingi asrlarda madhiya, marsiya, munozara, tuyuq kabi mumtoz adabiyot janrlari sifatida rivojlanib, o'z terminologiyasini yangilagan bo'lsa-da, ularning mazmuniy va strukturaviy ildizlari qadimgi turkiy madaniyatga borib taqaladi.

"Devonu lug'otit turk" turkiy adabiyotshunoslik tarixida she'r nav'lari va adabiy janrlarning genezisini o'rganishda eng muhim manbalardan biri bo'lib, unda yigirmaga yaqin adabiy janr – lirik (qoshug', yir), epik (sav, o'tkunch), didaktik (o'tluk, bilig) va marosimiy (alqish, qarg'aq, yig'i) janr an'analari shakllanganligi qayd etilgan. Bu esa turkiy adabiyotning arab va fors adabiyoti ta'siridan ancha oldin ham mustaqil badiiy tajriba va janriy tizimga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov A. 2006. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi.- Samarqand.
2. Абдурауф Фитрат. 2006. Танланган асарлар. IV жилд. – Т.: Маънавият.
3. Кошғарий М. 1960. Туркий сўзлар девони. Девону луғотит турк. III томлик. I том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Т.: Ўзбекистон ФА нашриёти.
4. Кошғарий М. 1960. Туркий сўзлар девони. Девону луғотит турк. III томлик. I том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Т.: Ўзбекистон ФА нашриёти.

5. Кошғарий М. 1960. Туркий сўзлар девони. Девону луғотит турк. III томлик. I том. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Т.: Ўзбекистон ФА нашриёти.
6. Mamatqulov M.R. 2004. “Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi”.dis....filol.fan.nomzodi.- Toshkent.
7. Орзибеков Р. 2006. Адабий меросимиз сеҳри. – Самарқанд.
8. Rahmonov N. 2017. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Sano-standart” nashriyoti.
9. Валихужаев Б. 1993. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон.
10. Vohidov R., Eshonqulov H. 2006. O‘zbek mumtoz adabiyot tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot nashriyoti.